

**MATEMATIKA DARSLARIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASH QOBILYATINI RIVOJLANTIRISH**

Dehqonova Xilola

Farg'ona davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:**

maqolada matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarning tanqidiy fikrlash qobilyatini rivojlantirish rivojlantirish metodlari haqida qisqacha fikrlar yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** tanqidiy fikrlash, tanqidiy tahlil, fikrlash jarayoni, murakkab fikr, g'oya, tanqidiy ko'nikma, matematika.

Ma'lumki, inson shaxs sifatlarining o'zgarishi, shakllanishi, rivojlanishi bevosita o'qitish va o'rgatish jarayonining samaradorligi bilan bog'liq. Har bir metodik yangilik ham inson shaxsi sifatlarini rivojlantiradi. „Tanqidiy fikrlash faol jarayon hisoblanib, bunda o'quvchilarda ilmiy bilim olish bilan birga fikrlash jarayonida o'ziga ishonch ortadi, o'z fikri va g'oyalarning qadrini tushunadi, o'quv jarayonida faol ishtirok etadi, do'stlari va o'qituvchi bilan fikr almashishni o'rganadi hamda mas'uliyatligi oshib, o'zgarlar fikrini tinglay olish ko'nikmasi shakllanadi”<sup>1</sup>.

O'quvchilarning, mantiqiy va tanqidiy fikrlashini kuchaytirishi — bu bevosita matematika fanining o'qitilishini takomillashtirish, o'quvchilarda tanqidiy ko'nikma va malakani shakllantirishdan iborat. O'quvchilarimizni kelajakda ijtimoiy hayotga va o'zgarib borayotgan dunyoga tayyorlashimizda albatta tanqidiy fikrlashning o'rnini beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasida xam quyidagifikrlarini bayon qilgan: «Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak». Yaqinda yangi o'zbek intellektual avlodni tarbiyalashga ixtisoslashgan Prezident maktablariga imtihonlar bo'lib o'tdi. Yakuniy bosqichda o'quvchilarni saralashda tanqidiy fikrlash (critical thinking) muhim kriteriyalaridan biri ekanligi aytilgan edi. Prezident maktablariga kirishda matematika va ingliz tilidan test, tanqidiy fikrlash va muammoni yechish bo'yicha masalalar berilgan edi.<sup>2</sup>

Albatta, tanqidiy fikrlashni o'stirish uchun matematika fani muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pchilik insonlar matematika faniga ko'p ham ahamiyat berishmaydi. Chunki matematikadagi hamma formula va teoremlar kundalik turmush uchun keraksiz deb o'ylashadi. Ammo, unday emas. to'g'ri, matematik formulalar kundalik turmushimizda kerak bo'lmasligi mumkin. Lekin u miyyani chiniqtirib ravshanlashtiradi va sog'lom fikrlashga o'rgatadi. „Sog' tanda sog'lom aql“ deganlaridek turli bilimlar

1.Xodjueva F.O. «O'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish». /Monografiya-T.:«Fan»2008

2. Sh.M.Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak ". Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruzasi. 2017-yil 14-yanvar

bilan boyigan miyyamiz hayotimiz davomida turli qarorlarni qabul qilishda, kundalik muommolarimizni hal qilishimizda asqatadi.<sup>3</sup>

Tanqidiy fikrlashni matematika faniga bog'lar ekanmiz biz avvalo matematika fanining ham maqsadini to'raligicha anglashimiz kerak. Matematika fani faqat misol masalaning javobini bilish emas balki uni qanday yo'llar bilan ishlashni tushunishdan iborat. Agarda biz faqatgina misol masalaning javobini bilish bilangina cheklansak unda matematikaning tub maqsadini yo'qotamiz. Mutaxassislarimiz tomonidan «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun bolalarni qanday tayyorlash kerak, aniq bir yo'nalish bormi, degan savolni Cambridge Assessment vakillariga berilgan edi. Bu yo'nalishda aniq bir mana bu yo'nalishda ketadigan bo'lsangiz, maqsadga erishasiz, degan javob olinmagan edi. Ya'ni, imtihon kuni bolaning qanday bilimi bo'lsa, muammoni qanday yechadi, tanqidiy fikrlashga qanday qaraydi, shu narsa tekshiriladi», - deb javob olingan.<sup>4</sup> Tanqidiy fikrlash bu albatta tanqid qilish degani emas. U mustaqil fikrlash demakdir. Shuning uchun dars jarayonida biz o'quvchilarga berayotgan har bitta misol masalaga e'tibor berishimiz kerak. Berilgan masala faqat birgina javob bilan cheklanmasligi kerak, ya'ni har bir o'quvchi o'zi yechimini mustaqil bayon qila olishiga zamin yaratilishi kerak. Matematikani tanqidiy fikrlashni rivojlantirish yo'lida vosita sifatida ko'rar ekanmiz, matematika darslarida maqsad misol yechish emas, balki misol yechish orqali masalaga yechim topish ekanini tushunish lozim. Sodda qilib aytganda, biz matematikani alohida mavzular sifatida emas, balki ma'noga ega, real hayotga alogador yo'sinda tushuntirisha bilishimiz kerak. Masala yechishda talabalarni kichik guruhlarga bo'lib ishlash an'anaviy matematikani o'qitish usulidan ko'ra boshqacha malakalarni shakllantirishi mumkin. Shunchaki masalani yechish o'miga talabalar o'zaro bahslashadilar, yechimga borishning turli usullarini muhokama qiladilar, o'z yechimlarini isbotlab, himoya qilishni o'rganadilar. Albatta, bu talabalardan asosiy bazaviy bilimlarga (ma'lum formula yoki teoremlar) ega bo'lishni talab qiladi. Bunda o'qituvchi masalani to'g'ri tanlashga e'tibor berishi kerak. Masala noodatiy bo'lish bilan birga, talabalarning kursiga, o'rgangan bilimlariga mos bo'lishi lozim. Yechilish usuli hammaga kunday ravshan bo'lgan masalani berish ham maqsadga muvofiq emas. Masalani turlicha talqin qilish mumkin bo'lsa, yana yaxshi. Boshqa tarafdin, hech qachon bundaymasalani ko'rmagan talabaga o'ta murakkab masalani berib, uni dovdiratib qo'yish. Xulosa qilib aytganda, haddan ortiq loqaydlik ham o'g'irlikdan yomonroq sanaladi. Bolalarni befarq, loqayd va sodda bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatini bugundan rivojlantirishimiz lozim. Shundagina kelajagimiz har tomonlama fikrlab, to'g'ri xulosa qilishga qodir yoshlar qo'lida bo'ladi. matematika fanidan tanqidiy fikrlash yo'lida vosita sifatida foydalanish mamlakatimizning bugungi taraqqiyot bosqichida juda ahamiyatlidir. Yangi, to'g'ri yoki noto'g'ri ma'lumotlar keragidan ortiqcha bo'lgan, reklama, noaniqlik va shubha va chalg'ituvchi narsalar bilan to'la bugungi zamonimizda yoshlarimizni sog'lom fikrlay olish, tanqidiy mulohaza yurita bilish malakasini shakllantirish har doimgidan ham dolzarbdin.

<sup>3</sup> [https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanqidiy\\_fikrlash](https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanqidiy_fikrlash)

<sup>4</sup> Xalqaro ochiq jamiyati institutining «Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» dasturi. - T.,2002

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Qizi, R. D. T., & Qizi, M. F. M. (2021). Developing the critical thinking of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 769-772.
2. Muhammadkadirovna, G. D., Abdulhamitovna, S. H., & Qizi, R. D. T. (2022). The Role of Innovative Training Methods in Individualization Training. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 272-279.
3. Toyirovna, R. D. (2021). Critical Thinking Process in School Children. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 165-168.
4. Rustamova, D. T. K., & Mamajonova, F. M. K. (2022). STAGES OF ACTIVATING LEXICAL SYNONYMS IN THE SPEECH OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 750-756.
5. Rustamova, D. (2023). THE IMPORTANCE OF A COGNITIVE APPROACH TO LEARNING SYNONYMS IN PRIMARY GRADES. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(3), 32-36.
6. Niezova, M., & Rustamova, D. (2020). Ona tili darslarida oquvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi interaktiv va noan'anaviy metodlari. *Молодой ученый*, (4), 480-481.
7. Tursinova, M. M. T. (2021). OZBEKISTONDA RUS TILINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN CHORATADBIRLAR. *Студенческий вестник*, (17-8), 44-45.
8. Rustamova, D. (2023, June). LINGUISTIC NATURE OF SYNONYMS. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 10, pp. 108-110)*.
9. Toyirjonovna, R. D. (2023). Importance of Cognitive Approach to Learning Synonyms in Primary Grades. *World of Science: Journal on Modern Research Methodologies*, 2(6), 13-16.